



Evfemizmlarning zamonaviy tilshunoslikdagi talqini

Xodjayeva Dilafruz Izzatullayevna
BuxDU dotsenti, PhD

Kambarova Gulchexra Akbarovna
BuxDU magistranti
Email: kambarovagulcehra670@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ingliz tilida yaratilgan evfemizmlarni tasvirlashga harakat qilinadi. Gender xushmuomalalik tamoyiliga asoslangan evfemizmlarning shakllanishi va ishlatilishini taqozo etuvchi pragmatik omillar tahlil etilgan. Bunday holda, gender parametri evfemizatsiyaning lingvistik vositalarini tanlashga bevosita ta'sir qiladi.*

***Tayanch soʻzlar:** evfemizm, gender, gender tilshunoslik, pragmatik omil, xushmuomalalik tamoyili.*

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda evfemizm hodisasini oʻrganish, unga lingvistikaning yangi yoʻnalishi rakursida shakllandi. Zamonaviy tilshunoslikda gender tushunchasi paydo boʻlib, bu yangi tushuncha orqali lingvistikada gender tilshunoslik yoʻnalishi paydo boʻldi. Bu yoʻnalish ingliz tilida soʻzlovchi jamiyatning ijtimoiy ongida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gender tilshunoslik yoʻnalishi – ayol va erkak nutqidagi oʻziga xosliklarni, har bir jins vakili nutqidagi xususiyatlarni xushmuomalalik pozitsiyasi bilan oʻrganishni taqozo etadi va erkak va ayol nutqidagi farqlar va oʻxshashliklar bu yoʻnalishning oʻrganish obyekti hisoblanadi. Bu soha koʻplab tilshunoslarning izlanishlari markazida turadi. Bularga E.A. Zemskaya, A.P. Martinyuk, R. Lakof, Dj. Koats kabi olimlarning ishlarini misol qilishimiz mumkin.

Evfemizmlar insoniyat nutqida qadimdan mavjud boʻlgan. Tildagi tabular soʻz yasaliş jarayonidagi baquvvat richag sifatida xizmat qilgan, natijada taqiqlangan soʻzlar oʻrnini yangi, maqbul variantdagi evfemizmlar egallagan. Lingvistik adabiyotlarda evfemizm tushunchasiga berilgan koʻplab izohlarni uchratamiz. Ularning tahlili shunday yakuniy xulosga olib keladi: evfemizmlar deb, nutqda nutqda qoʻpol, istalmagan, ishlatilishi nojoiz boʻlgan tushunchalar oʻrnida qoʻllaniluvchi soʻz va iboralarga aytiladi. Evfemiya muammosini koʻplab olimlarning ishlarida keng va sarmahsul yoritilgan. Bunda olimlar sirasiga B.A. Larin, L.A.Bulaxovskiy, C.Silver va J. Neaman kiradi.

Evfemiya hodisasini oʻrganuvchi ingliz tilshunosi J.Neamanning ishlarini oʻrganar ekanmiz, til va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida evfemistik tezaruslar guruhlarining dolzarbligi turlicha boʻlgan. Evfemizmlarning eskirishida asosiy faktorlarga maʼnaviy va ijtimoiy negizlarning xilma-xillashuvi kiradi. Shu bilan bir qatorda u yoki bu realiyalarning yoʻqolishi, yoki aksincha yangi realiyalarning yaralishiga sabab boʻladi.

Evfemizmlarning yaratilishida bir qator pragmatik omillarni ajratib koʻrsatish zarurdir. Pragmatik omillarning ajratib koʻrsatishning oʻziyoq soʻzlovchini evfemizmlardan foydalanishga undaydigan asosiy turtki ekanligini taʼkidlaydi. Gender xushmuomalalik tamoyili asosida yaratilgan evfemizmlar turli xildagi aqliy va jismoniy nuqsonlarni yanada yumshoqroq ifodalashda qoʻllaniladi. Uhbu yangi tushunchaga izoh berar ekanmiz, nutqiy vaziyatlarda oʻzini munosabatini bildirishda suhbatdoshiga nisbatan hurmatga asoslangan, irqiy kamsitilishni rad etadigan, erkak



yoki ayol jinsining munosabatlarda ustunligini emas, balki har ikkala jinsga sabr toqat va muloyimlik bilan muomala qilishni, salbiy fikrlarni neytrallashtirishdan iboratdir.

Gender tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy qismi “ayollar masalasiga” bagʻishlangan. Bizning tadqiqotlarimiz doirasida oʻrganilayotgan evfemizmlar asosan ayollar nutqiga xos boʻlgan, ayollarni tavsiflovchi evfemizmlardir. Shuni taʼkidlash joizki, aynan ayollar oʻz nutqida evfemizmlarni koʻproq ishlatishadi. R. Lakoffning aytishicha, ayollar – evfemizmlar borasida haqiqiy mutaxassislardir. Uning fikricha, ayollar nojoʻya yoki nomuqobil, qoʻpol iboralarni ishlatishmaydi va bu oʻz navbatida “ayollar tilini” oʻrganish uchun yanada qiziqarli obyektga aylantiradi.

Zamonaviy ingliz tilidagi gender xushmuomalalikni ifodalovchi evfemistik birliklarni izlash jarayonida ingliz tilidagi baʼzi bir manbalarni tahlil qildik. (“The Gazette”, “The Oprah magazine”, “People” jurnallari), shuningdek ayollarning tashqi koʻrinishi, ijtimoiy va boshqa sohalaridagi faoliyatini ifodalovchi evfemizmlarni tavsiflash maqsadida yangi ingliz tilining izohli va maxsuslashtirilgan, til va mamlakatshunoslik yoʻnalishidagi lugʻatlariga murojaat qildik.

Anʼanaviy umumisteʼmolda boʻlgan evfemizmlarning badiiy adabiyotlarda, OAvda va reklamalarda uchratishimiz mumkin. Rus tilshunosi G.A. Vildanovning fikricha, ayollarga xos jihatlarni xarakterlovchi evfemizmlarni tahlil qilishdan oldin ingliz tilida soʻzlashuvchi jamiyatning oʻziga xos boʻlgan streotiplarini va ijtimoiy axloq normalarini inobatga olish zarurdir. Ayollarga negativ munosabatlarni bildirishda evfemiyalashgan birliklarni bir nechta tematik guruhlariga ajratdik.

- 1. Baholash xarakterini ifodalovchi evfemizmlar.** Bu guruhga kiruvchi evfemizmlar xushomaddan yiroq boʻlgan holda, jamiyatning ayol xulq ayol atvoriga, oilaviy holatiga boʻlgan munosabatini bildiruvchi leksik birliklar kiradi. Bunday birliklar hammaga tanish boʻlib, “no better than should be” yoki “not all she should be” hayotga yengil qarovchi ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bunday baholovchi xarakterdagi evfemizmlar kinoya bilan birga qollaniladi. Misol uchun, “on the shelf” – eskirgan yoki qolib ketgan tovar maʼnosida kelib, turmush qurmagan, kech oila qurmoqchi boʻlgan ayol maʼnosida, “fishing fleet” (baliq ovi – flotiliya) turmush qurish yoshidagi qizlarning oila qurish maqsadida chet elga ketib qolishini ifodalashda, “wallflower” – tashqi koʻrinishi jozibador boʻlmagan yosh qizlarga nisbatan qoʻllaniladi.
- 2. Jismoniy kamchiliklarni yashirish uchun ishlatiladigan evfemizmlar.** Bu guruhga mansub evfemik birliklar juda koʻp boʻlib, bunga ayollarning chiroyiga, qomatiga, yaxshisi koʻrinishiga boʻlgan kuchli intilishini sabab qilsak boʻladi. Ayollardagi ortiqcha vazn yoki “semizlik” kabi muammolar tilda mazkur muammolarni ifodalovchi evfemizmlarni shakllanishiga sabab boʻldi. Bunday evfemizmlarga “full-figured”, “ample”, “well-built”, “filled out”, “pleasantly plump”, “big boned” kabilar misol boʻladi. Shuningdek, “of classic proportions” – klassik proportsiyalar sohibasi, yaʼni qomati mukammal ayollarga nisbatan ishlatiladi. Savdo sotiq sohasida ham mahsulotni xarid qilishga undash yoki mijozni jalb qilish uchun yuqorida misol keltirilgan evfemizmlar keng qoʻllaniladi. Katta oʻlchamli kiyimlarni sotishda, toʻladan kelgan ayollarga kiyimlarni mohirona taklif qilish, oʻlchamni kattaligini mohirona ifodalash uchun mos birliklarni qoʻllay olish talab etiladi. Masalan “mature figure”, “queen size”, “full size” kabilarni ham misol keltirsak boʻladi.
- 3. Jismoniy fiziologik jarayonlar va tana aʼzolarini ifodalovchi evfemizmlar.** Bu guruhdagi evfemizmlar bir qator soʻzlarni oʻrni almashtirgan holda yoki tabulashgan birliklarni oʻrniga ishlatiladigan yoki istalgan ijtimoiy jamiyat nutqida uchratamiz. Ularning paydo boʻlishida maʼnaviy qattiqoʻllik va uyat sabab boʻlgan. Quyida misollar bilan tanishamiz.



Xomilador ayolni tasvirlamoqchi bo'lsak, uning qomatidagi o'zgarishlarni ifodalashda "anticipating", "expecting" kabilar misol bo'ladi. Tanadagi fiziologik holatlarni anglatishda "bedewed", "wetness" singari evfemizmlar yoki "a lady night get "bedewed" but she didn't sweat" singari misollarni uchratamiz.

Evfemizmlar qo'llanilish doirasi va nutq egasining muomala madaniyati, so'zlovchi va tinglovchining salohiyatidan kelib chiqqan holda rang tanlanadi. Nafaqat so'zlashuv jarayonida, balki badiiy adabiyotda ham evfemizmlarning keng tarqalganiga guvoh bo'lamiz. Bu tilning ma'no mazmun imkoniyatlarining ko'pligini anglatadi. Endilikda evfemik birliklar faqatgina yozuvchi yoki shoirlar, jurnalistlar asarlarida ifodalanibgina qolmay, shu tilda muloqot qiluvchilarning, qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar, nutqida o'z aksini topsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Evfemizmlar xushmuomalalik va yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu o'z navbatida har bir so'zlovchini tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

Used literature:

1. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.- Самарканд, 2011.-27 с.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyZIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyZIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
2. Saidova, Mukhayyo Umedilloevna (2020) "LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2: Iss. 9, Article 45. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/45>
3. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS"," Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>
4. Расулов, З. И. (2010). Принцип контекстуального анализа эллиптических предложений (на материале английского языка). Вестник Челябинского государственного университета, (21), 91-94. <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-kontekstualnogo-analiza-ellipticheskikh-predlozheniy-na-materiale-angliyskogo-yazyka/viewer>
5. Kobilova, N. S. (2016). LITERARY INTERPRETATION OF SOCIAL PSYCHOLOGY IN THE NOVEL "MARTIN EDEN". World science, 4(3 (7)), 52-53. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815>
6. Kobilova, N. S. (2018). BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 102-107). <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>
7. Izzatilloevna Khodjaeva Dilafruz, Tolibovna Saidova Zokira. "Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English", ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH: 2021, Volume: 10, Issue: 5, Online ISSN: 2278-4853, Article DOI: [10.5958/2278-4853.2021.00411.0](https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00411.0)
8. Dilafruz Izatilloevna KHODJAYEVA, Zokira Tolibovna SAIDOVA. "THE ORIGIN AND JUSTIFICATION OF THE TERM TAXIS IN



LINGUISTICS”, E-Conference Globe: 2021/4/13, 375-379, Web:
<https://econferenceglobe.com>

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Горшунов Ю.В. Вестник БирГПИ 2003. № 3. С. 56-60
2. Вильданова Г.А. Актуальные проблемы лингвистики, психолого-педагог. и метод. Аспекты обучения ин. языкам. Шадринск, 2004. С.97-100.
3. Holder R.W. A dictionary of euphemisms. New York, 2003. – 501p.
4. Neaman J., Silver C. Book of Euphemisms. London, 1999. P.40.